

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Matqulov	
Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek.....	372
D.M.Uktamovna	
"Mehrobdan chayon" va "Tanazzul" romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligi ...	377
M.B.Siddiqov	
Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli.....	381
S.S.Abdullayev, D.M.Obidova	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi	387
R.I.Madaliev	
Artpedagogika vositasida (teatr sa'nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari	391
D.Z.Xudaykulova	
Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari.....	395
Sh.A.Dosbayeva	
Mantiqiy fikrlesh mashg'ulotlarining didaktik ta'minotini takomillashtirish.....	402
D.A.Xomidova	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish.....	408
B.S.Sharipova	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	412
T.S.Axmedova	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat dasturidan foydalanish	416
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	420
A.E.Normatov	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o'simliklari yordamida tozalash	425
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta'lif talabalarida o'quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi	428
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi	433
B.Q.Qurbanova, M.Esonmirzayeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya fani asosida milliy kasibga yo'nalrishning usul va metodlari.....	437
S.M.Boboraximov	
Kichik sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati	441
N.A.Akbarova	
Farg'ona viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroti va natijalari	445
A.A.To'raxonov, A.A.Ergashev	
Alovida ta'lif ehtiyojiga ega o'quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishslashning klaster mexanizmlari	450
M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova	
Umumta'lif muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida).....	457



УО'К:355.4 (75.15). 355/359

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA HARBIY TA'LIM TALABALARIDA
O'QUV-JANGOVAR SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-БОЕВЫХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ ВОЕННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА**

**METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF STUDY-FIGHTING QUALITIES IN
MILITARY EDUCATION STUDENTS BASED ON THE COMPETENT APPROACH**

Umarov Ismoiljon Olimjonovich 

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lif fakulteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola jahonda chaqiriqqacha harbiy rahbarlarda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv-jangovar sifatlarini rivojlanirishni talab darajasidagi dolzarb vazifaga aylanishi, ta'limgangi kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki kompetensiyalarni, ularni turli vaziyatlar (amaliy mashg'ulotlari, dala-o'quv yig'inlari, qo'mondon-shtablik o'quv mashqlari)da qo'llash qobiliyatini shakllantirishni, harbiy tayyorgarlik nuqtay-nazaridan, bu xizmat vazifalarini muvaffaqiyatlil bajarish uchun zarur bo'lgan turli xil sifatlarni rivojlanirishni anglatadigan, talabalarda o'quv-jangovar sifatlarini rivojlanirish metodikasini nazariy asoslari ko'rib chiqilgan.

Аннотация

В данной статье развитие боевых качеств у военачальников на основе компетентностного подхода статья актуальной задачей на уровне вос требованности сборов, командно-штабных учений), а значит, формирование умения его применять. В условиях военной подготовки, развития различных качеств, необходимых для успешного выполнения этих обязанностей, были рассмотрены теоретические основы методики развития боевых качеств.

Abstract

This article calls for the development of combat qualities in military leaders on the basis of the competence approach to become an urgent task at the level of demand. training camps, command-staff training exercises), which means the formation of the ability to use it in terms of military training, the development of various qualities necessary for the successful performance of these duties. The theoretical foundations of the methodology of combat qualities development were considered.

Kalit so'zlar: Harbiy ta'lif, kursant, kompetensiyaviy yondashuv, ko'nikmalar, bazaviy kompetensiya, dala-o'quv yig'inlari, kompetentlik, qiyin vaziyat, nazariy, amaliy mashg'ulotlar, mutaxassislik, o'quv-jangovar, sifatlar, rivojlanirish, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi.

Ключевые слова: Военное образование, курсант, компетентностный подход, навыки, базовая компетентность, полевая подготовка, компетентность, сложная ситуация, теоретическая, практическая подготовка, специализация, боевая подготовка, качества, развитие, Амир Темур, Джалалуддин Мангуберди.

Key words: Military education, cadet, competence approach, skills, basic competence, field training, competence, difficult situation, theoretical, practical training, specialization, combat training , qualities, development, Amir Temur, Jalaluddin Manguberdi.

KIRISH

Dunyoning yetakchi ilmiy-harbiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida (Armaniston Respublikasi Mudofaa vazirligining milliy mudofaa-tadqiqot universiteti harbiy kadrlarida strategiya, taktika, rejalashtirish va o'qitishni tahlil qilishga, shu jumladan kompetensiya dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan; Buyuk Britaniya Mudofaa tadqiqotlari instituti harbiylar uchun o'qitish usullari va dasturlarini, shu jumladan o'quv-jangovar sifatlarni rivojlanirish aspektlarini tadqiq qiladi va ishlab chiqadi) harbiy ta'lif tizimini takomillashtirishga, o'quv-jangovar sifatlarning innovatsion rivojlanishini yaratishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazildi, bu esa harbiy tayyorgarlikning mutaxassislariga kelajakda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning harbiy

ILMIY AXBOROT

rahbarlari o'rtasida jangovar, jismoniy va taktik ko'nikmalarni rivojlantirish metodologiyasini yaratish bo'yicha (Rossiya Federatsiyasi, N.G.Kuznetsov nomidagi harbiy o'quv-ilmiy markazida talabalarni o'qitish va tayyorlashning harbiy-pedagogik jihatlari sohasidagi tadqiqotlarga ixtisoslashgan) harbiy-ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lif standartlarini joriy etish har bir talabaning ehtiyojlari va xususiyatlarni hisobga olgan holda o'rganishga yanada moslashuvchan va individual yondashuvni o'z ichiga oladi. Bu muvaffaqiyatli xizmat uchun zarur bo'lgan texnik, kommunikativ, yetakchilik va shaxslararo ko'nikmalarni o'z ichiga olgan kompetensiyalar to'plamini shakllantirishga yordam beradi.

Harbiy ta'lif kontekstida "kompetentlik", "kompetensiya" va "bazaviy kompetensiyalar" atamalarini muhokama qilish dolzarbdir, chunki ular bo'lajak harbiy mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini belgilaydigan asosiy elementlarni ifodalaydi. Ushbu tushunchalar zamонавиy pedagogika va ta'lif strategiyalarida markaziy o'rinni egallaydi, chunki ular shaxsni kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorlash darajasini aniqlashga imkon beradi.

"Kompetentlik" – ma'lum bir sohada samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarning murakkab to'plamini o'z ichiga oladi. Harbiy ta'lif kontekstida kompetentlik nafaqat nazariy bilimlarni, balki uni amalda qo'llash, stressli vaziyatlarda asoslangan qarorlar qabul qilish va jamoada samarali muloqot qilish qobiliyatini ham anglatadi.

"Kompetensiya" – bu mutaxassisning ma'lum bir sohada muayyan vazifalar yoki funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatini aks ettiruvchi yuqori ixtisoslashgan tushuncha. Harbiy ta'lif kontekstida bu jangovar harakatlarni tashkil etish, strategik rejani ishlab chiqish yoki harbiy birlik resurslarini samarali boshqarish qobiliyatini o'z ichiga olishi mumkin.

"Bazaviy kompetensiyalar" – bu turli sohalarda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar, bilimlar va sifatlarni ifodalaydi. Harbiy ta'lif kontekstida asosiy kompetensiyalarga jamoada ishlash qobiliyati, vaqt ni samarali boshqarish, etakchilik qobiliyati va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qibiliyatlarini kiradi.

Harbiy ta'limga kompetensiyaviy yondashuvning metodologik asoslarini bo'lajak harbiy mutaxassislarning kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan bir nechta tamoyillarni amalgaga oshirishga asoslangan. Quyidagi rasmida (1-rasm) asosiy tamoyillar keltirib o'tilgan.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik harbiy rahbarlarining asosiy vazifalaridan biri bu talaba-yoshlarda o'quv-jangovar sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishdir. O'quv-jangovar sifatlar harbiy xizmatning ajralmas qismidir va harbiy vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, malakalar va sifatlarning kompleks to'plamidir. Ular jismoniy tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, jamoada ishlash va etakchilik qibiliyatları, stressga chidamlilik, axloqiy va psixologik barqarorlik va boshqalarni o'z ichiga oladi. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'lajak harbiy rahbarlarida o'quv-jangovar sifatlarning pedagogik rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega va maxsus yondashuvni talab qiladi.

BO'LAJAK HARBIY MUTAXASSISLARNING KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN TAMOYILLARI

Natijaga yo'naltirish. Harbiy ta'lilda kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy sohada muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan muayyan kompetensiyalar ko'rinishidagi aniq natijalarga erishishga qaratilgan.

Bilim va ko'nikmalar integratsiyasi. Integratsiya tamoyili nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar va malakalar bilan birlashtirishni nazarda tutadi, bu esa harbiy mutaxassislarni tayyorlashga kompleks yondashuvni shakllantirishga imkon beradi.

Kontekstuallik va dolzarblik. O'qitilishlar haqiqiy harbiy vaziyatlar va vazifalarga yo'naltirilishi zarur, shunda talabalar o'z kompetensiyalarini xizmat va jangovar faoliyat kontekstida samarali qo'llashlari mumkin.

Tizimli va ketma-ketlik. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish ketma-ket va tizim shaklida tashkil etilishi kerak, shu jumladan kompetensiyalarning bazaviy darajadan yanada murakkab vazifalar va ko'nikmalarga progressiv rivojlanishi.

Refleksiya va o'z-o'zini baholash. Refleksiya va o'z-o'zini baholash tamoyili talabalarga o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglashga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, tajribalarini tahlil qilish asosida o'z malakalarini moslashtirishga va yaxshilashga imkon beradi.

1-rasm. Bo'lajak harbiy mutaxassislarning kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan tamoyillari.

Agar tarixga nazar qaratsak, buyuk sarkarda Amir Temur o'z davridagi jangchilarda o'quvjangovar sifatlarni oshirishga salmoqli hissa qo'shgan. Amir Temurning harbiy konsepsiysi qat'iy intizomga, yuqori jismoniy tayyorgarlikka va taktika, strategiyadan amaliy foydalanishga asoslangan edi. Xususan, Amir Temur o'z davridagi jangchilarda o'quv-jangovar sifatlarni oshirishga katta hissa qo'shgan. Uning tanlash strategiyasi, har-xil turdagи mashg'ulotlari, taktik va strategik texnikalarni ishlab chiqish hamda jismoniy tayyorgarligi unga jang maydonida katta g'alabalarga erishgan kuchli va intizomli harbiy kuchlarni yaratishga yordam bergen.

Bundan tashqari, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi o'z davridagi jangchilarda o'quvjangovar sifatlarni oshirishga salmoqli hissa qo'shgan. U jangovar mahorati, etakchilik qobiliyati va strategik tafakkuri bilan mashhur bo'lgan. Uning keng qamrovli tayyorgarligi, shu jumladan jismoniy va psixologik tayyorgarlik, o'qitish va jangovar ko'nikmalarni o'rgatish hamda zamonaviy taktikalardan foydalanish uning armiyasini urush harakatlarida samarali va muvaffaqiyatli qilgan.

Harbiy ta'lim kursantlarida o'quv-jangovar sifatlarni rivojlantirish yuzasidan amerikalik general va siyosatchi Jorj Marshall quyidagicha izoh berib o'tgan, yani "Harbiy ta'lilda muvaffaqiyatga erishish uchun kursantlar nafaqat jismoniy ko'nikmalarini, balki jamoada ishslash, stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish va hatto eng ekstremal sharoitlarda ham diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirishlari zarur".

Shuningdek, Isroil tarixchisi va harbiy nazariyotchi Martin Van Kreveld quyidagicha izoh berib o'tgan, yani "O'quv-jangovar sifatlar kursantning xarakterini shakllantirish va uning harbiy vazifalarni bajarishga tayyor bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu sifatlarga intizom, qat'iyatlilik, stressga chidamlilik va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va tezda qaror qabul qilish qobiliyatini kiradi".

ILMIY AXBOROT

Shved harbiy nazariyotchisi Henrik Samuelssonning so'zlariga ko'ra, "Harbiy ta'lif kursantlarida o'quv-jangovar sifatlarni rivojlantirish ularning kasbiy o'sishining ajralmas qismidir. Faqat yuqori darajadagi jismoniy va ruhiy tayyorgarlik bilan yosh harbiy xizmatchilar o'z vazifalarini samarali bajarishlari va o'z mamlakatlari xavfsizligini ta'minlashlari mumkin" deb, izoh berib o'tgan.

AQSh havo kuchlarining sobiq bosh qo'mondoni Devid Goldfeyn quyidagicha izoh berib o'tgan, yani "Yetakchilik, strategik fikrlash va o'qitish qobiliyati kabi o'quv-jangovar sifatlar harbiy karera uchun muhim omillardir. Kursantlar o'zlarining faoliyat sohalarida samarali rahbarlar va mutaxassislar bo'lislari uchun ushbu fazilatlarni rivojlantirishlari zarur".

Yuqoridagi fikrlardan shuni ta'kidlashimiz mumkinki, harbiy ta'lif talabasining xarakterini shakllantirish va uning harbiy vazifalarni bajarishga tayyorligi jarayonida o'quv-jangovar sifatlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu sifatlar talabalarda intizom, qat'iyatlilik, stressga chidamlilik va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'lajak harbiy rahbarlarida bunday sifatlarning rivojanishi va harbiy faoliyatdagikompetensiyalar uchun asos yaratadi.

Ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'lajak harbiy rahbarining bunday sifatlari maqsadlilik, shiddatlilik, qat'iyilik, jasoratlilik, matonatlilik, chidamlilik, intizomlilik, o'z-o'zini nazorat qilish, qadr-qimmat, mustaqillik, botirlik, tashabbuskorlik boshqalar shu asosda harbiy ta'lif sohasidagi imkoniyatlar oshadi va shu bilan birga ularning o'quv-jangovar sifatlari shakllantiradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha sifatlar, talabalarning o'quv faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va ularga yanada samarali va malakali harbiy xizmatchilar bo'lislarga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv-jangovar sifatlarini rivojlantirishni talab darajasidagi dolzarb vazifaga aylanishi, ta'limgagi kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki kompetensiyalarni, ularni turli vaziyatlar (amaliy mashg'ulotlari, dala-o'quv yig'lnari, qo'mondon-shtablik o'quv mashqlari)da qo'llash qobiliyatini shakllantirishni amaliy harbiy tayyorgarlik bilan birlashtirilganda samarali bo'ladi.

O'quv-jangovar sifatlarni rivojlantirishda bo'lajak harbiy rahbarlarni harbiy tayyorgarlik nuqtasi-nazaridan, bu xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan turli xil sifatlarni rivojlantirishni anglatadigan, tezkor qarorlar qabul qilish va etakchilik ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'XATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi 406-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi 458-sonli "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-uil 12-sentabrdagi RQ-4447-sonli "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi Farmoni;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-4947-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni;
5. 2020-yil 29-oktobrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni;
6. Umumiy taktika jangovar birlashma, bo'linmalar harakatlarini tashkil etish va taktikasi 3-kitob. Toshkent-2022 y.
7. Толипов У., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. Т -2006 йил.
8. Ta'limda innovatsion texnologiyalar R.Ishmuhamedov, A.Ab duqodirov, A.Pardayev. Toshkent - 2008 yil.
9. Umarov, I.O. (2021). harbiy tayyorgarlik o'quv markazida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash: an'analari, innovatsiyalari, istiqbollari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 939-944.
10. Umarov I. O., Abduraximov I. zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda, harbiy ta'lifning maqsadi, vazifalari va istiqbollari //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №.7.– C. 15-18.
11. Olimjonovich, Umarov Ismailjon, Hakimov Paxlavon Jalaldin Son, and Yusupov Shahzodbek Bahadirovich. "the second world war turned into an industrial building area." European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 2.10 (2022): 264-268.
12. Olimjonovich U. I. et al. yoshlarda axborot hamda mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakillantirish //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 17. – №.4. – C. 111-115.

13. Olimjonovich U. I. et al. harbiy bilim yurtlarda harbiy psixologiya fanining o'rgatish afzalliklari va ahamiyati //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №.4.– C. 415-419.

14. Umarov I., Ergashev S., Salimov J. the relationships of forming life content and creative thinking of military servants //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №.1.– C. 23-27.

15. Olimjonovich, Umarov Ismailjon, Hakimov Paxlavon Jalaldin Son, and Yusupov Shahzodbek Bahadirovich. "THE SECOND WORLD WAR TURNED INTO AN INDUSTRIAL BUILDING AREA." European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 2.10 (2022): 264-268.

INTERNET RESURSLAR

1. <https://temurtuzuklari.uz/uz>
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
3. <https://naukaip.ru/wp-content/uploads/>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/kompetentnostnyy-podhod-k-formirovaniyu-kommunikativnoy-kompetentnosti-studentov-tehnicheskikh-spetsialnostey>
5. <https://rtvi.com/stories/my-dolzhny-otkazatsya-ot-blokovogo-mentaliteta-ekonomist-dzheffri-saks-o-konflikte-na-ukraine-sankcziyah-i-otnosheniyah-ssha-i-rossii/>